

## **Boshlang‘ich ta‘lim jarayonini tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi  
kafedrası o‘qituvchisi **Ne‘matov Oybek Erkin o‘g‘li**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi **Umirova Mohinur Mirzo qizi**

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga samarali targ‘ib etish xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar :** axborot, internet, innovatsiya, intellektual, ta‘lim, texnologiya, bilim, svilizatsiya, axborotlashgan jamiyat, ko‘rgazmalilik, kompetensiya.

### **KIRISH**

Barchamizga ma‘lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asri. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va mavqeyi kundan kunga oshib bormoqda. Bugungi kundalik hayotimizni ularning o‘rnisiz tasavvur qilolmaymiz. Axborotlar oqimi va shiddatligi butun dunyo miqiyosida keng ko‘lamda almashinuv jarayoni orqali kengayib bormoqda. Har bir sohada axborot texnologiyalarining o‘rni katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ta‘lim jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyos o‘rin egallaydi. Zamonaviy ta‘lim jarayonini yaratishda, texnologiyalar keng qamrovli jalb etilishi darkor. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko‘mak beradi. Ta‘lim jarayonida eng so‘nggi axborot texnologiyalarini ishtirokini ta‘minlash, va boshqa faol targ‘ibotlarni amalga oshirish natijasida ta‘lim sifatini darajasi yuqorilaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi o‘laroq, yurtimizning barcha ta‘lim muassasalarida moddiy texnik bazaning yaxshilanishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Barcha ta‘lim muassasalarini axborot texnologiyalari vositalari bilan ta‘minlanishi, ta‘lim sifatini yaxshilanishiga olib kelmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, mavzuga doir adabiyotlar va yana bir qancha qo'llanmalardan foydalanildi.

### MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish natijasida, keying ta'lim bosqichlarini ham tubdan isloh qilishga erishish mumkin. AKT ni ta'lim jarayonida keng ko'lamli qo'llash, zamonaviy ta'lim muhitini yaratish va boshqalar bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Axborotlar ko'lami kengaygan bir davrda, ma'lumotlar bazasi kengayishi ham ta'lim sifatini yaxshilanishiga olib keladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishda AKT vositalarining ishtiroki bevosita muhimdir. An'anaviy dars muhitidan farqli o'laroq, noodatiy dars shaklini tashkil etish orqali, ta'lim sifatini yuqori bo'lishiga va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Darsni ko'rgazmalilik texnologiyalaridan unumli foydalangan holda, tashkil etish zamonaviy ta'lim muhitini yaratishga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda AKT dan foydalanish, ta'lim tizimimizdagi muhim mavzulardan biridir. Boshlang'ich sinflarda AKT dan foydalanish quyidagilarga imkon yaratadi.

1. O'quvchilarda butun dunyo miqiyosidagi axborotlardan xabardor bo'lish, va ularni to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi.
2. Axborotlar bilan ishlashning amaliy usullarini egallash.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish.
4. O'quvchilarda bilish faolligini oshirish.
5. Dars jarayonlarini yuqori saviyali ko'rsatkichga olib chiqish.

Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida AKT vositalarini qo'llash, o'quvchilarning barcha fanga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga sabab bo'ladi. Ahamiyatli jihati shundaki, o'quvchilarda kompyuterda ishlash savodxonligini shakllantirish turli xildagi ma'lumotlarni taqdim etish va o'zlashtirish imkonini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan bir qatorda, kompyuter o'quvchilarning diqqatini faollashtirishga, ularda motiv tuyg'usini oshirishga, tasavvur va fantaziyasini rivojlantirishga asos bo'ladi. Dars muhitiga AKT ni tatbiq etish,


darsning vaqt davomiyligini barqarorlashtirishga ham yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda axborot bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, kelgusi faoliyatga jarayonlarda ham asqotadi. O‘quv jarayonlarida AKT dan keng foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining yaxshilanishiga yordam beradi.

Axborot deganda biz atrof –muhit obyektlari va holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamlanmasi tushuniladi. Axborot so‘zi lotincha “informatio” so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish, bayon etish, biror narsani yoki biror bir voqea hodisalar haqidagi ma‘lumotlar yig‘indisini anglatadi. Axborot atamasining lug‘aviy ma‘nosini izohladik, endi axborotlashgan jamiyat tushunchasiga izoh bersak. Axborotlashgan jamiyat – jamiyatning ko‘pchilik a‘zolari axborot, uni qayta ishlash va boshqalar bilan uzviy bog‘langan jamiyat tushuniladi. Yapon olimlarining fikricha, axborotlashgan jamiyatda, kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbayidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida, axborotni qayta ishlashni yuqori darjada avtomatlashtirishni ta‘minlash imkonini beradi. Jamiyatni rivojlantirishda, esa harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo‘lmog‘i lozim. Axborot texnologiyalari tufayli, insonlarning faoliyati, kundalik muloqot sohasi, bilim va ilmiy salohiyati nihoyatda kengayadi.

Vazirlar Mahkamasining Axborotlashtirish haqidagi Qonun talablarida, 1994-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasini axborotlashtirish konsepsiyasini ma‘qulladi. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi, quyidagilardan iborat:

- Milliy axborot – hisoblash to‘rini yaratish.
- Axborotlarga tovar sifatida yondashishning, iqtisodiy, huquqiy va me‘yoriy hujjatlarini yuritish.
- Axborotlarni qayta ishlashning jahon standartlariga rioya qilish
- Informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish
- Axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag‘batlantirish va qo‘llab -quvvatlash.
- Informatika vositalaridan foydalanuvchilarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunining 46-moddasida keltirilganidek, “Pedagog xodimlarga axborot shakllari va usullaridan foydalanishi majburiyati yuklatilgan”. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda, qator muammolarga duch kelinishi tabiiy. Bundan ko‘rini turibdiki, ta’limni axborotlashtirishda moddiy texnik bazaning yetarli bo‘lishi hamda, pedagog kadrlarning axborot texnologiyalari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.



1-rasm. Axborot tushunchasining obyektlari .

Axborot texnologiyalari ta’lim tizimiga keng ko‘lamda targ‘ib etilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin.

1. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati samarali tashkil etiladi.
2. O‘quvchilarning hissiy idrok etishlari va egallanayotgan bilim va ko‘nikmalari ularning tasavvur doirasida kengroq gavydalanadi.
3. Ta’lim tizimining salohiyati va sifati yuqorilaydi.

### **XULOSA**

Umumiy qilib aytganda , boshlang‘ich ta’lim jarayoniga AKT ni qo‘llash, dars unumdorligining oshishiga sabab bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dastlabki axborot texnologiyalari haqidagi ma’lumotlarni egallashlarida muhim omil vazifasini o‘taydi. Yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni



zamon talablariga uyg'un holda, tarbiyalash uchun ta'lim jarayoniga AKT vositalarini bevosita dars muhitiga olib kirish va o'rinli qo'llash zarur hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, axborot almashinuv jarayoni ko'p qirrali va uzviy davom etadigan jarayon demakdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini balki, barcha sohalrni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Sattorov “ Informatika va axborot texnologiyalari ” Toshkent -2008
2. To'liqin Eshbekov “ Axborot xizmatlari ” o'quv qo'llanma.
3. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottoyev “ Web texnologiyalari ” Toshkent-2013
4. M.Kadirov “ Axborot texnologiyalari” Toshkent -2018.
5. S.S.G'ulomov, B.A.Begalov “ Informatika va axborot texnologiyalari” Ziyonet tarmoqlari.
7. Ne'matov, Oybek. "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI." " Science Shine" International scientific journal 3.3 (2023).

---

# Research Science and Innovation House